

**WORD-FORMATION CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS OF  
THE SEMANTIC FIELD «TV» IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES  
(EXAMPLE OF ABBREVIATIONS)**

**Mamatqulova Madina Olimovna**

Student of Termiz University of Economics and Service

E-mail: [mamatqulova@gmail.com](mailto:mamatqulova@gmail.com)

**Abstract.** An abbreviation is a language unit used to express a long word or phrase in a short form. Abbreviations are widely used in the language to shorten words or phrases, simplify their pronunciation or generalize. They help speed up language communication and increase efficiency. The article analyzes the lexical-semantic and structural features of the lexical combinations of the semantic field «TV» in Uzbek and English (as an example of abbreviations), and also focuses on the issues of studying abbreviations in linguistics.

**Key words:** abbreviation, linguistic aspect, television, structure, lexical, semantics, various abbreviations, acronym, calks, clipped words

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA “TV” SEMANTIK MAYDONI LEKSIK  
BIRIKLARINING SO‘Z YASALISH XUSUSIYATLARI  
(ABBREVIATURALAR MISOLIDA)**

**Mamatqulova Madina Olimovna**

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Abbreviatura— bu uzun so‘z yoki iborani qisqa shaklda ifodalash uchun ishlatiladigan til birligi. Abbreviaturalar so‘z yoki iboralarni qisqartirish, ularning talaffuzini soddalashtirish yoki umumlashtirish maqsadida tilda keng qo‘llaniladi. Ular til kommunikatsiyasini tezlashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maqolada o‘zbek va ingliz tilida “TV” semantik maydoni leksik birliklarining so‘z yasash xususiyatlari (abbreviaturalar misolida) leksik-semantik, struktur jihatdan tahlil qilingan, shuningdek, tilshunoslikda abbreviaturalarning o‘rganilish masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** abbreviatura, lingvistik jihat, televideniye, struktur, leksik, semantik, harli qisqartma, akronim, alka, qisqargan so‘zlar.

**Kirish.** Abbreviaturalarni lingvistik jihatdan o‘rganish XX asrning 50-yillaridan so‘ng boshlangan. Bugungacha bu lisoniy hodisa va uning birliklarining xususiyatlari tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, televideniyaedagi abbreviaturalarni o‘rganish, odatda, ommaviy axborot vositalari tilidan foydalanish, media tadqiqotlari, lingvistika yoki kommunikatsion tadqiqotlardan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutatdi. Televideniyaedagi abbreviaturalar qulaylik, vaqt cheklovlari, tomoshabinga tanish bo‘lgan belgilarni inobatga olgan. СЕПРОБЛЕМС.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари

№ S/10 (4) – 2024 2024

Televideniyaedagi abbreviaturalarni quyidagi turlarga ajratgan holda o‘rganish mumkin:

Akronimlar - so‘zlarning bosh harflaridan tuzilgan abbreviaturalar. Televizorda abbreviaturalar ko‘pincha tashkilotlar, ko‘rsatuvlar yoki mashhur atamalar uchun ishlatiladi.

Masalan, «NBC» (Milliy radioeshittirish korporatsiyasi), «CSI» (Jinoyat joyini tekshirish) yoki «HBO» (Uydagi kassa), MTRK (Milliy teleradiokompaniya), AOKA (Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi), MIB (Majburiy ijro byurosi). [1] Harfma-harf yozilgan abbreviaturalar -abbreviaturalarga o‘xshash, lekin harfmaharf talaffuz qilinadi. Masalan, «TV» (televidenie), «DVD» (raqamli ko‘p qirrali disk) va «HD» (yuqori aniqlik).

Qisqartirilgan sarlavhalar-teleko‘rsatuvlar ko‘pincha dastur jadvallari yoki reklama materiallariga moslashish uchun qisqartirilgan sarlavhalardan foydalanadi. Masalan, «The Big Bang Theory» (AQSh) ma‘lum kontekstlarda «BBT» ga qisqartirilishi mumkin. Ammo bu kabi qisqarishni O‘zbekiston telekanallarida uchratish qiyin, deyarli yo‘q. Madaniy yoki janrga oid abbreviaturalar- Sport yoki yangiliklar kabi ba‘zi janrlarda juda ko‘p abbreviaturalar bo‘lishi mumkin. Masalan, «NFL» (Milliy futbol ligasi), «NBA» (Milliy basketbol assotsiatsiyasi) yoki «CNN» (Kabel yangiliklar tarmog‘i). MMA (aralash jang san‘ati),

OCHL (Osiyo chempionlar ligasi), TT Taym (teleshou) Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ingliz tilidagi abbreviaturalar tilshunoslar, leksikograflar va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq, odatda, faqat abbreviaturalarga e‘tibor qaratadigan aniq bir olimlar guruhi mavjud emas. Buning o‘rniga, abbreviaturalarni o‘rganish tilshunoslik, leksikografiya, sotsiolingvistika kabi kengroq sohalarga to‘g‘ri keladi. [2]

Misol uchun aytish mumkin, ingliz leksikologiyasida 20-asrning eng nufuzli tilshunoslaridan biri Noam Xomskiy o'zining sintaksis va generativ grammatika bo'yicha til tuzilmalari, jumladan, abbreviaturalar, aloqa tizimlarida qanday rivojlanishi va ishlashi haqidagi tadqiqotlari bilan sohaga bilvosita ta'sir ko'rsatdi. Uning ishi grammatika va til nazariyasiga ko'proq e'tibor qaratadi, lekin til ma'lumotni qanday soddalashtirishi yoki ixchamlashtirishini tushunishga ta'sir qiladi. Jon Algeo – ingliz leksikografiyasiga hissa qo'shgan tilshunosdan biri hisoblanadi. Algeo tilning evolyutsiyasi va yangi so'z shakllari, jumladan, abbreviaturalar rivojlanishi haqida qator tadqiqotlarida o'z xulosalarini e'lon qilgan.

Devid Kristal -ijtimoiy tilshunoslik va til ta'limi sohasidagi faoliyati bilan tanilgan britaniyalik tilshunosdir. Kristal zamonaviy ingliz tilidan foydalanishning ko'plab jihatlari, jumladan, abbreviaturalarning ko'payishi, ayniqsa raqamli aloqa va matnli xabarlar kontekstida ko'p uchrashi xodisasini atroflicha o'rgangan. Jeffri Lik - semantika va pragmatikani o'rgangan tilshunos, Lichning ishi til foydalanuvchilari, ayniqsa, norasmiy va raqamli kontekstlarda yanada samaraliroq muloqot qilish uchun stenografiya va abbreviaturalardan qanday foydalanishi haqida tushuncha beradi. Barbara A.V. Palmer – aloqa strategiyalari bo'yicha ishi bilan mashhur bo'lgan Palmer abbreviaturalarni o'rganishga, ayniqsa ularning muloqotda amaliy va ijtimoiy maqsadlarda qo'llanilishiga hissa qo'shgan. Piter Trudgill -tilning o'zgarishi, dialektlari va til evolyutsiyasini o'rgangan ijtimoiy lingvistdir. Trudgillning ishi tilning qanday soddalashtirilgani va moslashishi, shu jumladan abbreviaturalardan foydalanishga to'xtalib o'tadi. [3]

Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilida ham qisqartmalar bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, D. I. Alekseev (Belorussiya, 1958), S.B.Berlizon (Moskva, 1963), R.I.Mogilevskiy (Tbilisi, 1966), V.V.Borisov (Moskva, 1972), Z. A. Aliqulov CIENCEPROBLEMS.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари

№ S/10 (4) – 2024 203

(Toshkent, 1976), D. I. Alekseev (Saratov), 1979), M.M.Adilov (Boku, 1984), L. V. Vasilchenko (Olma-Ota, 1986), Kennon Garland (London, 1989), A. A. Bezrukova (Moskva, 1999),

P.Shadiko (Varshava, 2000), O. G. Kosareva (Tver, 2003), E. P. Voloshin (Moskva, 2005), I. V.

Varfolomeva (Moskva, 2006), Z. I. Sanaqulov (Toshkent, 2020) tilshunoslikning aynan shu sohasi bo'yicha ilmiy faoliyat yuritishgan. Bugun kun sayin yangi texnika-texnologiyalar, atamalar, qisqartmalar paydo bo'layotganligi

aynan abbreviaturalar yoʻnalishining hali ochilmagan qirralari, oʻrganilmagan jihatlari koʻpligidan dalolat beradi. Jamiyat nutqida tez-tez qoʻllaniladigan va chet tillaridan oʻzlashtiriladigan qisqartmalarni doimiy tarzda oʻrganib borib, ilmiy tadqiqotlar olib borish tilshunoslik sohasi taraqqiyoti uchun juda muhim. Shu sababli ushbu maqolada ingliz tilidan oʻzlashgan qisqartma soʻzlar imlosi xususida tahlil olib borilgan. Televideniye — bu ommaviy axborot vositalaridan biri boʻlib, uning leksik tizimi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz va oʻzbek tillarida televideniya sohasidagi abbreviaturalar va ularning soʻz yasash xususiyatlari oʻxshash va farq qiluvchi jihatlarni koʻrsatadi. Abbreviatura (qisqartmalar) — bu bir yoki bir nechta soʻzning qisqartirilgan shakli boʻlib, ular maʼlum bir semantik maʼnoga ega. Ingliz va oʻzbek tillarida abbreviatura shakllari oʻzaro farq qiladi, ammo ularning semantik maydoni va leksik yasalishi bir xil tamoyillarga asoslanadi. Oʻzbek tilida «TV» (televideniye) qisqartmasi turli leksik birikmalarda keng qoʻllaniladi. Misol tariqasida televizor — televideniye koʻrish uchun moʻljallangan qurilma, televizion dastur — televideniye orqali efirga uzatiladigan dastur, televizion kanallar — televideniye kanallari, yaʼni maxsus tarmoqlar, TV-shou — televideniye shoulari (koʻrsatuvlar), koʻpincha shu soʻz ingliz tilidan olingan, televizion yangiliklar — televideniye orqali uzatiladigan yangiliklar dasturini keltirish mumkin. Abbreviatura soʻzlarini yasashda oʻzbek tilida asosan transliteratsiya va qisqartirish metodlari qoʻllaniladi. Masalan, «TV» qisqartmasi ingliz tilidan kirib kelgan boʻlib, televideniye sohasida keng ishlatiladi. Shuningdek, baʼzan soʻz yasashda ingliz tilidan olingan kalka usulida ham ishlatiladi (masalan, «TV-shou»). [2]

**Tahlil va natijalar.** Maʼlumki, abbreviaturalar tilshunoslikda muhim rol oʻynaydi, chunki ular tilning rivojlanishini tezlashtiradi, yangi ijtimoiy va madaniy tendensiyalarni aks ettiradi va texnologik rivojlanishning bir qismi sifatida tilni moslashtirishga xizmat qiladi.

Abbreviaturalar tildagi semantik, sintaktik, fonetik oʻzgarishlar va kommunikativ ehtiyojlarni aks ettiruvchi elementlarga aylanadi. Ular nafaqat soʻz yasalishi, balki tilshunoslikning boshqa tarmoqlarida ham chuqur tahlil qilinishi mumkin. Ushbu maqolada 31 ta televideniye ga oid abbreviaturalar tanlab olindi va ular tuzilish, leksik va semantik jihatdan tahlil qilindi. Bu esa til elementlarining qanday yaratilishi va qanday oʻzgarishi mumkinligini anglashga yordam berdi. Struktur jihatdan ularning turlari koʻp, leksik jihatdan yangi soʻzlar va maʼnolar hosil qilish imkoniyatlarini berdi, semantik jihatdan esa qisqartmalar tilning oʻzgaruvchan va moslashuvchan tabiatini koʻrsatdi. Dastlab, tanlangan televideniye ga oid

abbreviaturalarni quyidagi turlarga ajratgan holda uning tuzilishini o'rgandik. Struktur jihatidan qisqartmalar quyidagi turlarga bo'linadi:

a) Harfli qisqartmalar (Initialisms) –bu bir nechta so'z yoki iboradan tashkil topgan qisqartma bo'lib, har bir so'zni qisqartirishda uning birinchi harflari ishlatiladi. Har bir harf alohida talaffuz qilinadi. [1]

Misollar:

CD – (compact disc) kompakt disk

NBS – (National bureau of standards) -Standartlar milliy byurosi, SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари

№ S/10 (4) – 2024 204

SDI – (serial digital interface) ketma-ket raqamli interfeys

b) Akronimlar (Acronyms)- bir nechta so'zning birinchi harflaridan tashkil topadi, ammo ular o'zgarib yangi so'zga aylanadi, ya'ni talaffuz bir butun so'z sifatida amalga oshiriladi.

Misollar:

MAC – (multiplexed analogue components) - analog komponentlarni zichlash tizimi MPEG – (motion pictures experts) -harakatlanuvchi tasvirlarga ishlov berish bo'yicha mutaxassislar guruhi PAL – (phase alternating line) -fazaning satr bo'yicha o'zgarishi Akronimlar, o'zining struktur jihatidan, yangi, oddiy talaffuzga ega bo'lgan so'zlar yaratadi va ular tilning yuqori darajadagi moslashuvchanligini ko'rsatadi.

c) Qisqargan so'zlar (clipped words) — bu so'zlarning ba'zi qismlari (ko'pincha so'zning bosh yoki oxirgi qismlari) olib tashlanadi. Bu usul so'zning talaffuzini soddalashtiradi, lekin so'zning asosiy ma'nosi saqlanadi. Bu qisqartmalar tilga moslashuvchan va oson ishlatiladigan shakllarga aylanishi mumkin.

Misollar: CATV – (cable television) - kabelli televideniye. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, abbreviaturalar so'zlarning o'zaro bog'lanishini, tilning yengilligi va samaradorligini ta'minlash uchun ishlatildi. [3]

Qisqartmalarining semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ko'pincha biror ma'lumot yoki tushunchani ifodalashda aniq va to'liq so'zlardan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin. Yangi qisqartmalar paydo bo'lishi bilan eski tushunchalarning ma'nosi qayta shakllanadi. VHS (video home system) -bu qisqartma texnologik sohada qo'llanilgan va maishiy video tizimi (video kasseta) ma'nosini ifodalagan, hozirda sohaga zamonaviy qurilmalar va raqamli jarayonlar faol kirib kelgani sabab ushbu abbreviatura kam iste'mol qilinadigan so'zlardan hisoblanadi. AAC – (advanced audio coding) -takomillashtirilgan tovush kodlash, AES/EBU signal – (Audio Engineering

Society/European Broadcasting Union) -AES/EBU signali, AFB – (acoustic feedback) - akustik teskari aloqa, CATV – (cable television) - kabelli televideniye, CAV – (constant angular velocity) - doimiy burchak tezligi, CD – (compact disc) kompakt disk, CD-ROM – (compact disk read only memory)- kompakt-disk (faqat o‘qish uchun), CLV – (constant linear velocity) - doimiy chiziqli tezlik, DSS – (digital satellite system (service)) raqamli yo‘ldosh tizimi (xizmati), DVB – (digital video broadcasting) raqamli televidizion eshittirish tizimi, DVB-T – (digital video broadcasting – terrestrial) yer usti raqamli video eshittirishi, DVD – (digital video disc) raqamli videodisk, ETSI – (European telecommunication standards institute) -Yevropa telekommunikatsiya standartlari institute, ISDN – (integrated services digital network) - xizmatlari integratsiyalashgan raqamli tarmoq, ITFS – (instructional television fixed service) - o‘quv televideniyesi xizmati, MAC – (multiplexed analogue components) - analog

komponentlarni zichlash tizimi, MATV – (master antenna television) -jamoaviy antennaga televidizion qabul, MOSFET – (metal-oxide semiconductor field effect transistor) -metall-oksidyarimo‘tkazgich strukturasi ega maydon tranzistori, MPEG – (motion pictures experts) - harakatlanuvchi tasvirlarga ishlov berish bo‘yicha mutaxassislar guruhi, MPE-FEC – (multiprotocol encapsulation – forward error correction) -ko‘p protokolli inkapsulyatsiya xatolarni to‘g‘ri (hisobga olgan holda) tuzatish, NBS – (National bureau of standards) - Standartlar milliy byurosi, NTSC – (National Television Standards Committee) Televidizion standartlar bo‘yicha milliy qo‘mita, PAL – (phase alternating line) -fazaning satr bo‘yicha o‘zgarishi, RCA – (Radiocorporation of America) -Amerika radiokorporatsiyasi, S-VHS – (super-SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари

№ S/10 (4) – 2024 205

video home system) - yuqori sifatli maishiy videotizimi, SDI – (serial digital interface) ketma-ket raqamli interfeys, SECAM – (sequentiel couleur a memoire) ranglar ketma-ketligini saqlash,

SMPTE – (society of motion picture and television engineers) -kino va televideniye muhandislari jamiyati, TVRO – (television receive only) - faqat televidizion qabul, QAM – (quadratureamplitude modulation) kvadratura-amplitudaviy modulyatsiya kabi abbreviaturalar. [4]

**Xulosa.** O‘zbek va ingliz tillaridagi «TV» semantik maydonidagi leksik birikmalar va abbreviatura nomlari so‘z yasash xususiyatlari o‘zaro o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rsatadi. Har ikki tilda televideniya sohasidagi abbreviaturalarning ma’nosi

umumiy bo‘lishiga qaramasdan, ularning qo‘llanishi va leksik qurilishi ba’zan tilga xos o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu holat til o‘rganishda va kommunikatsiya jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Televideniyeга oid ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent. 2007.
2. Aliyev D. O‘zbek tilida abbreviaturalar: Yasalishi va qo‘llanishi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
3. Carter R. Language and the Media. – London: Routledge. 2004.
4. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. Cohesion in English. London: Longman. 1976.